



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA “O‘GAY ONA” OBRAZINING LINGVOMADANIY TALQINI

Nizomova Iroda

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek va ingliz adabiyotida “o‘gay ona” obrazini lingvomadaniy yondashuv orqali tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ona va o‘gay ona obrazlari tarixiy, madaniy va psixologik kontekstlarda o‘rganilib, ularning ijtimoiy va madaniy stereotiplari aniqlangan. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida o‘gay ona obrazining stereotipik va dramatik talqinlari qiyoslangan, hamda bu obraz orqali adiblar qanday ijtimoiy muammolarni ko‘tarishi va ularni qanday yechimlarga yo‘naltirishi tahlil qilingan. O‘gay ona obrazining psixologik xususiyatlari, uning ichki dunyosi, shaxsiy dramasi va ruhiy kechinmalari izohlangan. Maqolada o‘gay ona obrazining psixologik portreti, uning ichki kechinmalari, oila ichidagi munosabatlar tizimida tutgan o‘rni, shuningdek, adiblar tomonidan ushbu obraz orqali yoritilgan ijtimoiy muammolar (yetimlik, oilaviy ziddiyatlar, ayollarga nisbatan ijtimoiy bosim, mehr va beparvolik o‘rtasidagi ziddiyatlar) tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada badiiy asar va hikoyalardagi o‘gay ona obrazining o‘zgarishi, uning psixologik va axloqiy jihatlari, til vositalari orqali ifodalanishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchiga adabiy obrazlar orqali madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni tushunishga yordam beradi, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi oilaviy obrazlarni, ularning lingvokulturologik xususiyatlarini va madaniy qarashlarning adabiyotdagi aksini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Shuningdek, maqola madaniyatlararo qiyosiy adabiyotshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, matn lingvistikasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘gay ona, lingvomadaniy tahlil, adabiy obraz, zamonaviy nasr, psixologik talqin, madaniy qadriyat.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА МАЧЕХИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Низомова Ирода

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель

Аннотация

Данная статья анализирует образ «мачехи» в узбекской и английской литературе с лингвокультурологической точки зрения. В ходе исследования образы матери и мачехи изучаются в историческом, культурном и психологическом контекстах, выявляются их социальные и культурные стереотипы. В англоязычных и узбекских художественных текстах проводится сравнительный анализ стереотипных и драматических интерпретаций образа мачехи, а также исследуется, какие социальные проблемы поднимают писатели через этот образ и как они предлагают их решение; рассматриваются психологические особенности мачехи, её внутренний мир, личная драма и душевные переживания. В статье анализируется психологический портрет мачехи, её внутренние переживания, место в системе семейных отношений, а также социальные проблемы, освещаемые писателями через этот образ (сиротство, семейные конфликты, социальное давление на женщин, противоречия между любовью и

равнодушием). Кроме того, в статье рассматривается изменение образа мачехи в художественных произведениях и рассказах, его психологические и моральные аспекты, выражение через языковые средства. Результаты исследования помогают читателю через литературные образы понять культурные ценности и социальные отношения, а также дают возможность глубже осознать семейные образы в английской и узбекской литературе, их лингвокультурные особенности и отражение культурных представлений в литературе. Кроме того, статья имеет теоретическое и практическое значение для исследований в области межкультурной сравнительной литературологии, лингвокультурологии и лингвистики текста.

Ключевые слова: мачеха, лингвокультурный анализ, литературный образ, современная проза, психологическая интерпретация, культурные ценности.

THE LINGUISTIC AND CULTURAL INTERPRETATION OF THE “STEMOTHER” IMAGE IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS

Nizomova Iroda

Uzbekistan State World Languages University, Lecturer

Abstract

This article undertakes linguocultural analysis of the image of the 'stepmother' in Uzbek and English literature. Within the framework of the study, the images of the mother and stepmother are examined through historical, cultural, and psychological perspectives, and their underlying social and cultural stereotypes are identified and systematized. The stereotypical, and conflict-driven, and often dramatic representations of the stepmother's image in English and Uzbek literary texts are comparatively analyzed. The article explores how authors employ the stepmother figure as a narrative tool to address pressing social issues and to articulate implicit or explicit solutions to them. In addition, special attention is paid to the psychological characteristics of the stepmother, including, her inner world, personal drama, and emotional experiences. The study analyzes the psychological portrait of the stepmother, examining her role within family relationships, as well as social issues highlighted by writers through this image (such as orphanhood, family conflicts, social pressure on women, and conflicts between affection and indifference). Furthermore, the article also examines the transformation of the stepmother image in literary works and stories, focusing on its psychological, ethical and moral aspects, and how it is expressed through linguistic means. The research results help readers understand cultural values and social relationships through literary images, and provide an opportunity to gain a deeper understanding of family representations in English and Uzbek literature, their linguocultural characteristics, and the reflection of cultural views in literature. The article possesses both theoretical and practical significance for research in intercultural comparative literary studies, linguocultural studies, and text linguistics, offering methodological insights and analytical perspectives applicable to related fields.

Keywords: stepmother, linguocultural analysis, literary image, modern prose, psychological interpretation, cultural value.

Hozirgi zamonaviy lingvistik tadqiqotlar yoʻnalishida til va madaniyat oʻzaro uzviy aloqadorlikda oʻrganilmoqda. Lingvomadaniy yondashuv orqali til nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki madaniy axborotni saqlovchi, uzatuvchi va aks ettiruvchi muhim tizim sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, badiiy adabiyotlarda til orqali ifodalangan ijtimoiy obrazlarning tahlili madaniyatlararo farqlarni anglash, milliy tafakkurni ochib berish, shuningdek, stereotiplar va

mentalitetning badiiy aksini tahlil qilish imkonini beradi. Badiiy matnlarda obrazlarning lingvomadaniy tahlili nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki madaniyatlararo farq va o'xshashliklarni ham ochib beradi. Oila va munosabatlar mavzusidagi obrazlar, xususan, "o'gay ona" obrazi, ikki turli madaniyat – ingliz va o'zbek adabiyotida qanday voqealanishi lingvomadaniy jihatdan qiziqarli va dolzarb mavzudir.

Bu obrazlar orqali jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarning madaniy ko'rinishlari, til va madaniyat o'zaro munosabatlari yoritiladi. "O'gay ona" obrazi, ko'pincha stereotipik, ba'zida esa empatik yondashuvda namoyon bo'lib, u har ikki millatning adabiyoti va madaniyatida muhim badiiy va ijtimoiy signal funksiyasini bajaradi. Mazkur mavzu bo'yicha olib boriladigan lingvomadaniy tadqiqotlar badiiy matnlarning chuqur qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi va til-madaniyat-badiiyat uchligi orqali adabiy obrazlarga yangi nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. (Umarova 2022:156)

Oila tushunchasi har bir jamiyatda muqaddas sanaladi. O'zbek va ingliz jamiyatlari bu borada o'z tarixiy, diniy va madaniy tajribalariga asoslanadi. "O'gay ona" obrazining badiiy matnlarda qanday ifodalangani, qanday til birliklari orqali tasvirlangani va bu obrazlarga nisbatan jamiyat munosabati bu ikki madaniyat o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni ochib berishga xizmat qiladi.

Ona obrazi ko'plab madaniyatlarda ilohiylik darajasiga ko'tarilgan, mehr-oqibat, fidoyilik, sabr-toqat timsoli sifatida qadrlangan. Ayniqsa, o'zbek xalq tafakkurida ona — hayot manbai, insoniylik asosidir. Qur'oni karimda onaga mehr ko'rsatish, unga bo'ysunish buyurilgan. Bunday ideallashtirilgan fon qarshisida "o'gay ona" obrazi, tabiiyki, salbiy tus oladi. U "mehrsiz", "begona", "nafratli" kabi konnotatsiyalarga ega bo'ladi. (Eshmatova 2020:72)

"Ona" konsepti insoniyat madaniyatida eng qadimiy va muqaddas tushunchalardan biri sanalib, u barcha jamiyatlarda mehr, tabarruklik va hayotni davom ettirish timsoli bilan bog'liq. Aksincha, "o'gay ona" obrazi bu ideal onalik obrazining o'zgarishi, ma'lum darajada so'nishi yoki rad etilishidan hosil bo'lgan muqobil model sifatida ko'riladi.

"O'gay ona" obrazi xalq ertaklaridan tortib zamonaviy nasrgacha bo'lgan ko'plab adabiy janrlarda uchraydi. Ingliz adabiyotida bu obraz ko'pincha antagonistik, yovuz personaj sifatida aks ettirilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida esa u ko'p hollarda ijtimoiy muammolar, ma'naviy tanazzul, oilaviy qadriyatlar inqirozi kontekstida tasvirlanadi. Bu obrazni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish orqali turli madaniyatlarda oilaga, ayolga, onalik roliga berilgan baholarni, ularning qadriyatlar tizimidagi o'rnini aniqlash mumkin. O'zbek madaniyatida ona obrazi – mehr-oqibat, fidoyilik, sabr-toqat, sadoqat kabi axloqiy ideallar bilan uyg'unlashgan. O'gay ona esa bu me'yorlarga mos kelmasligi bilan salbiy obraz sifatida shakllanadi. Bu orqali adabiy matnlar o'quvchiga axloqiy tanlov, munosabat, hayotiy qadriyatlar haqida fikr yuritish imkonini beradi.

So'nggi yillarda jamiyatda gender rollari, oilaviy model va qadriyatlar tizimining o'zgarishi bilan "o'gay ona" konseptiga ham yangi yondashuvlar kirib kelmoqda. Bunday transformatsiya ayniqsa ommaviy adabiyotda, kino san'atida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ilgari yomon sifatida tasvirlangan o'gay onalar hozirda mehribon, mas'uliyatli, hatto fidoyi ayol sifatida ham yoritilmoqda.

Bu esa lingvomadaniy konseptlarning vaqt o'tishi bilan yangilanishi, ijtimoiy-madaniy holatlarga mos ravishda qayta shakllanishini ko'rsatadi. Shu jihatdan "o'gay ona" konsepti madaniyatdagi o'zgarishlarni ko'rsatadigan kuchli ko'rsatkich (indikator) vazifasini bajaradi.

"O'gay ona" konsepti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p qatlamli, dinamik va

stereotiplashtirilgan madaniy-lingvistik birlikdir. U tilda mustahkam joylashgan, milliy tafakkurda salbiy munosabatga ega bo'lsa-da, zamonaviy tafakkurda uning ijtimoiy rollari qayta baholanmoqda. Shu bois bu konseptni tahlil qilish madaniyatlararo farqlarni ochib berish, stereotiplarga asoslangan yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilish, badiiy matnlar orqali madaniy arxetiplarni aniqlashda juda muhimdir. (Jalolova 2023:16)

G'arb madaniyatida "o'gay ona" konsepti chuqur ildizga ega, stereotiplashtirilgan, madaniyatlararo keng tarqalgan obrazdir. U asosan ayollar o'rtasidagi raqobat, onalik ideali, patriarxal normalar, ijtimoiy roldagi murakkabliklar va jamiyatdagi axloqiy talqinlar bilan bog'liq. Bu obraz G'arb badiiy tafakkurining ijtimoiy fojialar, axloqiy tanlov va ruhiy konfliktlarni ifodalash vositasi sifatida shakllangan bo'lib, hozirgi kunda yangilangan, murakkab va insoniy qiyofa kasb etib bormoqda. (Imomov 2001:82)

Sharq adabiyoti va xalq og'zaki ijodida ham "o'gay ona" obrazi mavjud bo'lib, u ko'pincha axloqiy saboq beruvchi personaj sifatida ishlatilgan. O'zbek xalq ertaklarida o'gay ona obraziga nisbatan ko'proq dramatik, ba'zan komik yondashuv mavjud. "Qo'sh bola", "Zumrad va Qimmat" kabi ertaklarda o'gay ona salbiy obrazda ifodalangan bo'lsa-da, bu obraz orqali bolalarning sabr-toqati, ezgulik va halollik qadriyatlarini targ'ib etiladi. (Jo'rayev 2019:13)

O'zbek adabiyotida, ayniqsa, XX asr nasrida bu obraz murakkabroq ijtimoiy kontekstda ifodalanadi. Masalan, Said Ahmadning "Ufq" romanida, Pirimkul Qodirovning "Avlodlar dovoni" asarida o'gay ona yoki o'gay farzand mavzusi orqali ijtimoiy ziddiyatlar, yetimlik, mehr-muhabbat, o'zaro ishonch kabi qadriyatlar muhokama qilinadi. (S. Ahmad 1990:36) O'zbek madaniyatida onalik maqomi juda yuksak bo'lib, bu maqomni egallagan har qanday shaxsdan jamiyat yuksak axloqiy mezonlarga mos harakat qilishni kutadi. Shu sababli o'gay onaning bu maqomda ko'rilishi har doim ham ijobiy bo'la olmaydi.

Sharq xalqlari, ayniqsa musulmon jamiyatlari uchun ona konsepti diniy, axloqiy va ma'naviy jihatdan muqaddas tushuncha sanaladi. Bu maqom nafaqat biologik rol bilan, balki axloqiy vazifa – mehr, sabr, fidoyilik, bag'rikenglik, farzand tarbiyasi kabi qadriyatlar bilan bog'langan. Shunday yuksak maqom egasiga aylangan "ona" obrazining o'rnini to'ldirish – "o'gay ona" timsolida – jamiyat tomonidan doim ehtiyotkorlik va shubha bilan qaralgan. Shu bois, o'zbek va umuman Sharq adabiyotida "o'gay ona" ko'p hollarda salbiy, ehtimoliy xavf tug'diruvchi obraz sifatida tasvirlanadi. (Qodirov 1997:92)

O'zbek jamiyatida "ona" maqomi yuksak bo'lib, bu maqomdan jamiyat ulkan axloqiy javobgarlikni kutadi. Biologik bo'lish shart emas – onalik ulug' fazilatlar bilan belgilanadi: mehr, sabr, himoya, o'zini qurbon qilish. Shuning uchun bu maqomda turgan shaxs – o'gay bo'lsa ham – ushbu qadriyatlarga amal qilishi kutiladi. O'gay ona esa ko'p hollarda ushbu qadriyatlarga mos bo'la olmaydi yoki mos deb tan olinmaydi. Bu esa o'gay onaning jamiyatdagi maqomini doimiy shubha ostida qoldiradi.

Bundan tashqari, diniy manbalar (Qur'oni karim va hadislar) har bir musulmonni yetimlarga mehribon bo'lishga, ularning haq-huquqlarini himoya qilishga undaydi. Bu qadriyatlar madaniyatda o'gay onadan ham aynan onaga xos bo'lgan fazilatlarini kutishni talab qiladi. Aks holda, o'gaylik "gunoh", "zulm" kabi tushunchalar bilan bog'lanadi. (Sattorova 2020:28)

Sharq va o'zbek madaniyatida "o'gay ona" obrazi salbiy semantik va madaniy fonda tasvirlanadi, biroq bu obraz nafaqat antagonistik, balki ijtimoiy muammolar, qadriyatlar sinovi, axloqiy tanlov manbai sifatida ham xizmat qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi bu obraz orqali axloqiy saboqlarni yetkazadi, yozma adabiyot esa uning murakkab psixologik va sotsiokulturologik jihatlarini yoritadi. Onalik maqomi yuqori bo'lgan jamiyatda bu maqomni to'liq bajara olmagan shaxs – o'gay ona – doimiy ijtimoiy bahoga duch keladi. Biroq zamonaviy adabiyotda bu obraz ham yangicha, insoniy nuqtai nazardan yoritilmoqda.

(Nizomova 2024:190)

O‘zbek nasrida “o‘gay ona” obrazi stereotipik salbiy obraz bo‘lib ko‘rinayotgan bo‘lsa-da, uning talqini orqali mualliflar ko‘proq ijtimoiy muammolar, ruhiy iztiroblar va insoniy qadriyatlar ustida turib o‘ylashga undaydilar. Adabiyot bu obraz orqali o‘quvchining axloqiy qarashlarini shakllantirish, mehr va beparvolik, adolat va adolatsizlik, yaqinlik va begonalik kabi mezonlarni baholashga chorlaydi. Shu orqali o‘zbek adabiyoti o‘gay ona timsolini shunchaki yovuzlik emas, balki jamiyatdagi yoriq va insoniyatning ichki iztirobi sifatida tasvirlaydi.

O‘gay ona mavzusi yoritilgan badiiy matnlar, hikoya va asarlar haqida so‘z yuritar ekanmiz, doim kitobxonlarning ko‘z o‘ngida yetim farzandlarga mehr berish o‘rniga o‘gaylik qiladigan ona timsoli gavdalanadi. To‘g‘ri, hech bir inson o‘z onasidek mehr-muhabbat berib, o‘rnini bosolmaydi. Ammo shunday onalar ham borki, o‘zi dunyoga keltirmagan farzandni chin mehr bilan tarbiya qilib, kamolga yetkazadi. Shuningdek, insonning o‘z onasi tomonidan aytilgan hech bir so‘z noo‘rin qabul qilinmaydi, tanqid etilmaydi, aksincha ijobiy tomondan chuqur ma‘no izlanib, tarbiya uchun ahamiyatli deb hikmat izlanadi, bir so‘z bilan aytganda, qalbimizga og‘ir botmaydi, ammo boshqa bir insonning gaplari, qayg‘urishlari va harakatlari, garchi u yurakdan bo‘lsa-da, onanikidek qabul qilinmaydi. Buni o‘zbek adabiyotining iste‘dodli vakili Tohir Malik ijodiga mansub “Mehr manzaralari” hamda O‘lmas Umarbekovning “Gul sotuvchi qiz” nomli hikoyalari xalqimiz orasida “o‘gay ona”lar ham turli xil bo‘lishi, ya‘ni haqiqiy, o‘z tug‘gan onasidan-da ziyoda mehr bera oladigan, o‘z farzandidek bag‘riga oladigan va boshqa tomondan esa hayotning bir qiyinchilik nuqtasida o‘gayligini oshkor etadiganlari ham borligini, shuningdek, ayrim hikoyalar davomida esa o‘gay farzandlar ham o‘z onasidek qabul qilgan holatlarni ko‘rish mumkin. Ingliz adabiyotida esa Susan Hillning “I’m the king of the Castle” asari orqali esa kitobxon “o‘gay ona” qahramoning butunlay boshqacha obrazda yoritilganini guvohi bo‘lishi mumkin. Quyida o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga hissa qo‘shgan, hamda o‘z uslubiga ega bo‘lgan yozuvchilarimiz Tohir Malik va O‘lmas Umarbekovlarning hikoyalari orqali “o‘gay ona” obrazini turlicha tahlil etamiz.

Tohir Malik “Mehr manzaralari” ushbu hikoyada **o‘gay ona** motivi o‘zbek adabiyotidagi an‘anaviy “salbiy o‘gay ona” stereotipidan tubdan farqli tarzda talqin qilinadi. Asarda o‘gay ona “yovuz”, “zulmkor”, “mehrsiz” ayol ko‘rinishida emas, aksincha **samimiy, mehrli, lekin iborani noto‘g‘ri ishlatgani sababli tushunmovchilikka sabab bo‘lgan ayol** sifatida gavdalanadi. Bu talqin o‘zbek adabiyotida o‘gay ona obrazining **zamonaviy, yangicha va empatik** talqiniga misol bo‘la oladi. (Malik 2013:15)

Tohir Malik “Mehr manzaralari”(3.O‘gay ona)

“- O‘qimas emishman, — dedi Oqil yana o‘jarlik bilan.
-Axir kim senga shunday dedi, bizga aytgin, — kuyundi direktor.
-Menga baribir endi... Hech kimning yordami kerakmas. Agar o‘zimning oyim bo‘lganlarida...
Oqilning lablari titradi, ko‘zlari yoshlandi. Burnini tortib qo‘ydi-da, o‘zini tutib olish uchun shiftga qaradi. Direktor gap nimada ekanini taxminan angladi. Biron xulosaga kelish uchun bu taxmin yetarli emasdi, shu sababli boladan yana so‘radi:
-Oqiljon o‘g‘lim, o‘jarlik qilma. Uyingda nima gap bo‘lganini menga ochiq aytaver. Biz seni xafa qildirib qo‘ymaymiz.

Ayolning “yangi oyim” deb atalishi — bolaning o‘z nutqi orqali berilgan. Asar davomida ayol **“meni onang deb bil”** deb majbur qilmaydi. Aksincha, u o‘gaylik holatini yumshatishga, o‘zini mehr orqali qabul qildirishga urinadi.

Bolaning “o‘zim eshitdim” deb aytilishi esa o‘gay ona obrazining **psixologistik ko‘rinishi**— bola ayolning so‘zini literal (tashqi shakli bilan) qabul qiladi, mazmunini esa

noto'g'ri talqin qiladi.

Oqil direktorga “rost aytyapsizmi?” deganday bir qarab oldi-da, nigohini derazaga qadab gap boshladi: -O'zim eshitdim, — dedi u yana burnini tortib qo'yib. — Anavi... yangi oyim dadamga “o'g'lingiz katta yigit bo'lib qoldi-ya, endi yoningizga olsangiz ham bo'ladi”, — dedi. Tag'in men uni...

“O'g'lingiz katta yigit bo'lib qoldi, yoningizga olsangiz ham bo'ladi” iborasi o'zbek kontekstida aslida “yigitingiz ulg'ayib qoldi”, “mas'uliyatli bo'lib kelyapti” kabi **maqto'v, erkalash** ma'nolarida ishlatiladi. Ammo bolaning lingvistik tajribasi tor bo'lgani uchun u ushbu gapni “**mendan qutulmoqchi**” degan tarzda talqin qiladi. Natijada ijtimoiy-psixologik konflikt til birliklari noto'g'ri anglashdan yuzaga keladi. (Kaipberganova 2023:265)

Oqil gapini tugata olmadi. Eshik ochilib, bir yoshlar chamasidagi shiringina bolani ko'tarib olgan ko'hlikkina juvon kirib keldi. -Mumkinmi, voy xayriyatey! — dedi u ostonaga hatlab ichkariga kirgach. — “Oqiljonni maktablariga chaqirib olib ketishdi”, deyishsa, nima gap ekan, deb jonimni hovuchlab yugurib kelaveribman. Tinchlikmi o'zi?

Juvonning salomlashishni ham unutib kirib kelishi uning g'oyat xavotirda ekanidan darak berib turardi. Direktor buni tushundi. Uning kim ekanligini ham hayajonli so'zlaridan angladi. Shu sababli gapni aylantirmay muddaoga o'tishni ma'qul ko'rdi. -Tinchlik, — dedi u xotirjam ohangda so'ng bolaga yuzlandi: — Oqiljon o'g'lim, sen tashqariga chiqib tur-chi.

Oqil qovog'ini uyganicha “xo'p”, dedi. Chiqayotganida ayolning qo'lidagi bola “atta!” deb unga osildi...

Direktor Oqilning bir necha kundan beri maktabga kelmayotganini, bugun darsdan keyin uyidan toptirib chaqirtirib kelganini va nihoyat, bolaning oxirgi gaplarini aytib berdi. Ayol ko'ylagining yengi bilan ko'z yoshlarini artib, piq-piq yig'ladi. Keyin “Voy, gapirmaygina men o'layin”, dedi-da, tashqariga chiqib Oqilni olib kirdi. -Voy gapirmaygina men o'layin, bolajonim. Men seni katta bo'lib qolganingni aytib erkalatmoqchiydim-a! Sen o'qib olim bo'lsang, ukang ham izingdan boradi, deb doim duo qilaman-ku? Gapga no'noq onangni kechir, bolajonim... — Ayol shu gaplarni takror-takror aytib Oqilni quchoqlab olganicha yuz-ko'zlaridan o'paverdi... Oqilning qo'lidagi ukasi bu holatdan ajablanib hayron bo'lib turdi Avvaliga sal qo'rqdi ham. Keyin bir akasini, bir onasini o'pa ketdi...” (Malik 2013:12)

Hikoyada ayolning yugurib maktabga kelishi, bolani ko'kragiga bosib yig'lashi, “gapga no'noq onangni kechir” deb takrorlashi, ukasining akasiga “atta” deb osilishi kabi detal va nutq birliklari o'gay ona obrazini juda tabiiy yoritgan. Bu yerda u mehribon, o'z tilida no'noq, qo'rqoq (bola mendan ranjimadimikin), o'zini ayblovchi ayol sifatida tasvirlangan. **O'gay ona** bu asarda o'zbek mentalitetida mehrli ona obrazini ifodalovchi murakkab lingvokulturologik obraz sifatida namoyon bo'ladi. (Yozdonqulova 2023:69)

O'zbek madaniyatida onalarni sifatlashda mehr, himoya, sabr, bag'rikenglik kabi onaga xos fazilatlar beramiz, ammo hikoyamizda esa “o'gay ona”qahramoni ana shu fazilatlarining **teskari timsoli** sifatida aks etadi. Bu tasvir orqali muallif madaniy stereotipni (o'gay ona — mehrsiz obraz) **real hayotiy misolda qayta jonlantiradi**.

Quyidagi ingliz asaridan berilgan parcha orqali esa “o'gaylik”ning butunlay boshqa qirralarining guvohi bo'lamiz. Ushbu roman **tragik psixologik drama** bo'lib, hikoya ikki o'smir — **Edmund Hooper** va **Charles Kingshaw** o'rtasidagi kuchli psixologik to'qnashuv atrofida qurilgan. Asar insoniy mehr yetishmaydigan oilada o'gaylik, beparvolik va bolalar o'rtasidagi shafqatsiz munosabatlar qanday oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi.

“I’m the king of the Castle” Susan Hill.

“Following the death of his father, a man named [Joseph Hooper](#) moves back into his father’s home, a large English mansion called [Warings](#). Joseph has an eleven-year-old son, [Edmund Hooper](#), and his wife, [Ellen Hooper](#), died six years ago. At first, Edmund is lonely and bored at Warings, which he considers a dull, ugly place. He’s fascinated by the [Red Room](#), a room of the house that contains the Hoopers’ vast collection of moths. (Hill 1970:18)

Joseph, lonely after the death of his wife, arranges for a woman named [Helena Kingshaw](#) to come to Warings to serve as his “informal housekeeper.” Helena brings her eleven-year-old son, [Charles Kingshaw](#), with her. Charles and Edmund immediately dislike each other. Edmund mocks Charles for being from a working-class family. He also learns that Charles’s father has died, and criticizes Charles’s father for not supporting his wife and child. Around Joseph and Helena, Edmund is sweet to Charles. But in secret, Edmund plays nasty tricks on Charles. Recognizing that Charles is frightened of birds, Edmund places a stuffed crow in Charles’s bed at night, making Charles so frightened that he can barely move. Edmund also locks Charles in the Red Room, knowing that Charles is scared of moths.

While Helena and Joseph become closer with each other, Charles plans to sneak away from Warings forever. He packs supplies, including food and a flashlight, and waits for an opportunity to run away into the woods surrounding the manor. Edmund realizes what Charles is planning to do, and assures Charles that he’ll follow him wherever he goes. One day, Helena and Joseph leave to explore London together, and Charles seizes the opportunity to run away. He goes into the woods, conquering his anxieties. But while he’s exploring, he realizes that Edmund has followed him there.

In the woods, Edmund is frightened of the dark trees and mysterious animals. Even though Charles is more confident and less frightened than Edmund, Edmund continues to bully Charles. He tells Charles that, very soon, Helena and Joseph are going to be married. Charles realizes that, even in the woods, Edmund is still in charge. Charles goes off by himself to look for a way out of the wood, and when he returns, he finds Edmund floating face down in a stream. Charles saves Edmund’s life. The next morning, men come and rescue Edmund and Charles, after searching for them for hours.

Back at Warings, Edmund tells Joseph and Helena that Charles pushed him into the stream. Charles is furious, but Helena believes Edmund’s story. She scolds Charles for running away from home, and Charles becomes so angry with her that he refuses to tell her the full truth about what happened.

A few days later, Edmund torments Charles by locking him in a shed. Charles knows that soon he’ll be sent to the same boarding school that Edmund attends. Edmund is popular, and he promises to use his power to make Charles’s life a living hell. Charles becomes increasingly overwhelmed by Edmund’s sadistic bullying.

Joseph and Helena continue to get closer. One day they drive Edmund and Charles out to visit an old [castle](#) in the countryside. Charles climbs to the top of the castle, and Edmund chases after him. At the top, Edmund becomes so afraid of heights that he loses his balance and falls, breaking several bones. Doctors rush Edmund to the hospital; once again, Helena seems to blame Charles for Edmund’s accident, even though Charles had wanted to help Edmund maintain his balance.

In the following weeks, Charles tries to enjoy his time apart from Edmund. He makes a new friend, a working-class kid named Anthony Fielding, who seems far more comfortable and self-assured than Charles could ever be. Fielding tells Charles not to be so frightened of Edmund, and reminds him that Edmund can’t actually “do” anything to him. Helena spends lots of time visiting Edmund in the hospital, which Charles resents greatly. Finally, Joseph

works up the courage to ask Helena to marry him.

Edmund returns to Warings, where he's forced to spend all his time in bed. Helena forces Charles to spend time with Edmund, even though Edmund continues to scare Charles and bully him in different ways. Edmund likes that Helena is spending so much time with him, even though he doesn't particularly like Helena. Charles occasionally steals away from Warings to spend time with Fielding, his only friend. Eventually, Helena finds out about Fielding, and invites him to come to tea with Edmund at Warings. This enrages Charles, since he thinks he's losing his only friend and, moreover, his "only secret." Around the same time, Joseph and Helena announce that they're getting married, meaning that Charles and Edmund will become brothers. (Hill 1970:63)

At Warings, Fielding is calm and collected as Edmund tries to scare him. Charles becomes frustrated when he realizes that Edmund treats Fielding differently than he treats Charles. He becomes so upset that he stubbornly refuses to spend more time with either Fielding or Edmund.

On the night before Charles and Edmund are set to leave for boarding school together, Charles wakes up and sneaks away from Warings. Furious with Helena, Edmund, and himself, he returns to the only place where he's ever felt completely comfortable—the woods. There, he finds the stream where he saved Edmund's life, and drowns himself. The next day, men find his body.

When Edmund learns about Charles's drowning, he feels triumphant, since he believes that in some way, he caused Charles's death. Helena embraces Edmund, and he smells her perfume.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida "o'gay ona" obrazining lingvomadaniy talqini tizimli ravishda o'rganildi, uni shakllantiruvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki adabiyotda "o'gay ona" obrazi qadimdan shakllangan stereotiplarga tayanadi, ammo bu stereotiplarning mazmuni, baholanishi va badiiy diskursda namoyon bo'lish uslubi sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz adabiyotida o'gay ona ko'proq antagonist, hissiyotlarini yashiruvchi, sovuq va adolatsiz xarakter sifatida tasvirlanadi; uning obrazi ko'pincha oilaviy nizolar, shaxsiy manfaat yoki ijtimoiy individualizm bilan bog'lanadi. Bu esa ingliz madaniyatida shaxs erkinligi, mustaqillik va individual psixologik kurashlarning muhim o'rin tutishi bilan izohlanadi.

O'zbek badiiy matnlarida esa "o'gay ona" obrazi odatda murakkab, ko'p qatlamli va ma'naviy ziddiyatlarga boy obraz sifatida talqin qilinadi. O'gay onaning salbiy fazilatlar mavjud bo'lsa-da, o'zbek adabiy an'anasida bu obraz ko'proq ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, oilaviy munosabatlar va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Natijada o'zbek adabiyotida o'gay ona hech qachon faqat "yovuz" obraz sifatida emas, balki axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy bosim, iqtisodiy muammolar, psixologik nozikliklar bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Bu esa Sharq adabiyotiga xos ma'naviy-ruhiy chuqurlik, axloqiy murakkablik va inson ichki olamiga e'tibor berish tendensiyasi bilan bog'liq.

Maqola shuningdek madaniy stereotiplarning badiiy matnlardagi qayta ishlab chiqilishi va o'quvchi ongida ularning qabul qilinish mexanizmlarini ko'rsatib berdi. Adabiy obrazlar, xususan, "o'gay ona" timsoli orqali ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va oilaviy munosabatlar to'g'risidagi madaniy tasavvurlar shakllanishi tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. Bundan ko'rinadiki, lingvokulturologik yondashuv badiiy matnlarni chuqurroq talqin etish, tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni hisobga olish va adabiyotlararo qiyosiy tadqiqotlarni takomillashtirishda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek adabiyotida "o'gay ona" obrazining madaniy

asoslari turlicha bo'lishiga qaramay, ikkala madaniyatda ham bu obraz jamiyatning oilaga bo'lgan munosabati, ijtimoiy vazifalar, ayollarga yuklatilgan axloqiy va ma'naviy mas'uliyatlar haqida muhim ma'lumot berishini ko'rsatadi. Shunday qilib, maqoladagi tahlillar lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalari uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar bilan yakunlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmad, S. "Ufq" Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 1990 – 36 - 208 b.
2. Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Fil. fan. nomz...diss. — Toshkent, 2020. — 167 b.
3. Imomov K. O'gay qiz tipidagi turkum ertaklarning ayrim xususiyatlari. // O'zbek tili va adabiyoti. — 2001. — №3. — B. 78–86.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005. — 228 b.
5. Jalolova F.N. "O'gay ona" konseptining lingvomadaniy talqini (ingliz va o'zbek xalq ertaklari misolida). Avtoreferat. — Toshkent, 2023. — 28 b.
6. Jo'rayev, M. "O'zbek xalq ertaklarida ayol obrazlari". Toshkent: Fan nashriyoti. 2019 – 13 b.
7. Kaipbergenova D.O. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida "stepmother/o'gay ona" konseptining farqli jihatlari.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023. — B. 261-266. www.oriens.uz
8. Malik, T. "Mehr manzaralari" [Hikoya]. 2013 – 17 b.
9. Nizomova I.R. "Ingliz va o'zbek asarlarida "o'gay ona" timsoli" Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan АРХИВЫ № 4 (57) / 2024 - JOURNAL.FLEDU.UZ <https://journal.fledu.uz/uz/issue/4-57-2024/> 189-201 b.
10. Qodirov, P. "Avlodlar dovoni". Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti"1981 – 126 b.
11. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — T.: O'qituvchi, 2004. — 242 b.
12. Sattorova G.Y. Bugungi hikoyalarda ayol obrazi talqini // Scientific work (international scientific journal), 2020. No. 08/57. – P. 29–32. DOI: 10.36719/AEM/2007-2020/57/29-32
13. Umarbekov, O. "Gul sotuvchi qiz" [Hikoya]. 1975 – 46 b.
14. Susan Hill "I'm the king of the Castle" 1970 – 84 b.
15. Umarova F.B. Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No. 3 (44). – P. 155-166. <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215
16. Yozdonqulova O.Z. Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri // Academic Research in Educational Sciences, 2023. 4(12). – B. 65–72. https://t.me/ares_uz